

Muzbel yodgorliklari topildi

2021-yil 6-30-sentyabr kunlari O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Milliy arxeologiya markazining "Qanqa ekspeditsiyasi paleolit bo'limi" Toshkent viloyati Angren vohasida dala-qidiruv ishlarini olib borishdi. Tadqiqot ishlari Yangiobodsoy va Qorabog'soy yuqori oqimi, Muzbel hamda Ko'k shashir daralarida olib borildi. Natijada hududda bir qator arxeologik yodgorliklar topib o'rGANildi.



Ekspeditsiya davomida o'rta paleolit davriga tegishli Muzbel 1 manzilgoh-ustaxonasi aniqlanib, dastlabki qazuv ishlari amalga oshirildi. Mazkur yodgorlikning O'zbekiston paleolit davrini o'rganishdagi ahamiyatini alohida ta'kidlab o'tish kerak. Hozirda 2x1 m. xajmdagi maydonda olib borilgan qazish ishlari natijasida ikkita madaniy qatlam aniqlandi. Muzbel 1 manzilgoh-ustaxonasidan topib o'rGANilgan tosh artefaktlar tahlili yodgorlikni Obirahmat madaniyatiga oid yodgorliklar guruhiiga mansubligi borasida dastlabki taxminlarni ilgari surish imkonini bermoqda.





Bugungi kunda nafaqat O'zbekiston, balki butun O'rta Osiyo paleoliti uchun mavjud muammolardan biri bu ochiq turdag'i yodgorliklarda madaniy qatlamlarning buzilmagan holda saqlanishi muammosidir. Muzbel 1 yodgorligi madaniy qatlamlari sathidagi artefaktlarning yotish holati va uzaro bir-biri bilan bog'liqlik hosil qilishi esa madaniy qatlamlarning yaxshi saqlanganligini ko'rsatmoqda.

Aniqlangan yodgorliklarning ikkinchi, boshqa bir turkumi qoyatosh sur'atlari bilan bog'liq bo'lib, Qorabog'soyning yuqori oqimi Ko'k shashir darasida turli davrlarga tegishli ko'plab qoyatosh sur'atlari aniqlandi. Qoyatosh sur'atlarida turli hayvonlar, inson hamda geometrik shakllar tasvirlangan. Ular ishlanish usuli va kompozitsiyasi jihatidan bir-biridan farqli va o'xshash xususiyatlarga ega. Qoyatoshlar rasmlari ichida qadimgi sug'd yozuvida bitilgan yozuv ham aniqlangan bo'lib, bu petrografik yodgorliklarning ijtimoiy-madaniy mansubligini aniqlash imkonini beradi.

Qo'lga kiritilgan ma'lumotlarning bir qismi yer yuzasidan topilgan topilmalar bilan bog'liq. Muzbel 1 yodgorligi va Kuk shashir darasida joylashgan adirlik yuzasidan topilgan ikkita tosh buyum qadimgi jamoalar tuqimachilik yoki zargarlik hunarmandchiliqi faoliyati haqida ma'lumot berishi mumkin. Bu kabi topilmalar noyob hisoblanadi. Hozirda ularning davri, analogiyasi hamda interpretatsiyasi haqida biror fikr yuritish qiyin.

Tosh buyumlarning nimaligi va qanday vazifa bajarganligini trasologik tadqiqot natijasida aniqlash zarur. Bu kabi tosh buyumlarga o'xshash tosh tumorlar so'nggi paleolit davridan boshlab paydo bo'lган. Ko'k shashirdan topilgan topilma Xakasiya hududidagi Kichik Sya yodgorligidan topib o'rganilgan tosh tumorlarga o'xshash. Har ikkala topilma yer yuzasidan topilgan bo'lsada ularning hududiy yaqinligi, hududda ushbu turdag'i xom-ashyo zahirasining mavjudligi ularning bitta davr va jamoaga tegishliliqi ehtimolini oshiradi. Shuningdek bitta turdag'i faoliyat natijasi yoki maqsadida tayyorlangan bo'lishi mumkin.